

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY





NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

Bosh muharrir

Kirgizbayev Abdugaffor
Karimjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir

Nazarov Abdug'affor
Abdubborovich, geografiya
fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir o'rinbosari

Ergashev Bobirjon Bahodirovich
pedagogika fanlari doktori,
dotsent

Texnik muharrir

Xoshimov Sardorbek
Nozimjon o'g'li

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ"

2019-yildan boshlab O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosati qarori
bilan quyidagi fan sohalari
bo'yicha OAKning
dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya
etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

01.00.00-Fizika-matematika
fanlari (14)

02.00.00-Kimyo fanlari (18)

03.00.00-Biologiya fanlari (17)

09.00.00-Falsafa fanlari (24)

10.00.00-Filologiya fanlari (26)

13.00.00-Pedagogika
fanlari (30)

Tahrir hay'ati a'zolari

Fizika-matematika fanlari

Xatamov Nosirjon Muydinovich, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Abdulazizov Baxromjon Toshmirza o'g'li, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Sattarov Iskandar Abu-alievich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mavlyanov Hasan Yusupovich, fizika- matematika fanlari nomzodi, dotsent
Jalolov Ravshan Maxmudjonovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Dexqonov Farrux Nuriddin o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Davlatov Abror Borijon o'g'li, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mamadaliyev O'ktam Xasanboyevich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Kimyo fanlari

Abdullayev Shavkat Vaxidovich, kimyo fanlari doktori, professor
Sultonov Boxodir Elbekovich, kimyo fanlari doktori, professor
Karimov Abdurashid Musaxonovich, kimyo fanlari doktori, professor
Doliyev G'olibjon Alisherovich, texnika fanlari doktori, professor
Rasulov A'zamjon Avazjonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Mamajanov G'ulomjon Odiljonovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Biologiya fanlari

Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, biologiya fanlari doktori, professor, akademik
Dexqonov Davron Burxanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Batoshov Avazbek Risqulovich, biologiya fanlari doktori, professor
Komilov Doniyor Jo'rayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Egamberdiyev Mehmonjon Xudoyberdiyevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent
Imomov Otabek Normirzayevich, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o'g'li, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Texnika fanlari

Ataxanov Shuhrat Nuriddinovich, texnika fanlari doktori, professor
Dadaxanov Musoxon Xoshimxonovich, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Boltibayev Shuxratjon Komiljanovich, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent

Qishloq xo'jaligi fanlari

Sulaymonov Inomjon Jamoldinovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
Turg'unov Muzaffar Mirzaraxmatovich, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori

Tarix fanlari

Rasulov Abdullajon Nuritdinovich, tarix fanlari doktori, professor
Dexkanov Narimon Burxonjonovich, siyosiy fanlari doktori, professor
Haydaraliyev Shuhrat Abdulazizovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Madraximov Zoxid Sharofovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xalmuratov Baxtiyor Rejavalievich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Erqo'ziyev Anvarjon Ashurovich, tarix fanlari nomzodi, dotsent
To'xtabayev A'zamjon Sharipxo'jayevich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Iqtisodiyot fanlari

Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Imomov Rustamjon Narzullayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Baymirzayev Dilmurod Nematovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yoqubjonova Xulkaroy Yoqubovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Falsafa fanlari

Talapov Baxriddin Alijanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Jo'rayev Ro'zimat To'xtasinovich, siyosiy fanlari doktori, professor

"NamDU ilmiy axborotnomasi –
Научный вестник НамГУ"

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Zaitova Sitara Baxodir qizi
CHDPU, stajyor-o'qituvchisi

HUQUQIY-MA'NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLAR ONGIDA AXLOQ-ODOB TAMOIYILLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya: Maqolada huquqiy-ma'naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan yoshlar ongida axloq-odob tamoyillarini shakllantirish jarayonining pedagogik aspektlari o'rganiladi. Axloqiy va huquqiy normalarning muvofiqlashtirilishi yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish hamda ularni jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga yordam beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida huquqiy va ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish yoshlar axloqining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Huquqiy qadriyatlar, ma'naviy qadriyatlar, axloq-odob tamoyillari, yoshlar tarbiyasi, pedagogik aspektlar, ijtimoiy mas'uliyat.

Зайтова Ситора

ЧГПУ, стажер-преподаватель

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ ПРИНЦИПОВ В СОЗНАНИИ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ПРАВОВЫХ И ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: В статье исследуются педагогические аспекты процесса формирования нравственных принципов в сознании молодежи с позиций правовых и духовных ценностей. Согласованность морально-правовых норм способствует повышению социальной ответственности молодых людей и осознанию ими своего места в обществе. Гармонизация правовых и духовных ценностей в учебно-воспитательном процессе приобретает важное значение для обеспечения устойчивости нравственности молодежи.

Ключевые слова: правовые ценности, духовные ценности, нравственные принципы, воспитание молодежи, педагогические аспекты, социальная ответственность.

Zaitova Sitara

CSPU, intern-teacher

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PRINCIPLES OF MORALITY IN THE MINDS OF YOUNG PEOPLE ON THE BASIS OF LEGAL AND SPIRITUAL VALUES

Annotation: the article explores the pedagogical aspects of the process of forming the principles of morality in the minds of young people from the point of view of legal and spiritual values. The Coordination of moral and legal norms helps to increase the social responsibility of young people and make them realize their place in society. Harmonization of legal and spiritual values in the educational process is important in ensuring the stability of youth ethics.

Keywords: legal values, spiritual values, principles of morality, youth education, pedagogical aspects, social responsibility.

Kirish.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni ma'naviy va huquqiy jihatdan yetuk, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash - jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Yoshlik - bu hayotda poydevor qo'yiladigan davr, bu davrda qanday qadriyatlar singdirilsa, kelajak aynan shunga mos shakllanadi. Shu boisdan ham huquqiy-ma'naviy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Aynan shu

qadriyatlar ularning ongida axloq-odob tamoyillarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Har bir qonun, har bir axloqiy norma - bu faqat qog'ozdagi qoidalar emas, balki insonni jamiyatda qanday yashashga, qanday yashash kerakligiga yo'naltiruvchi ichki kompasdir. Bugungi yosh avlod jamiyat bilan bevosita va uzluksiz aloqada bo'lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, axborot oqimi, zamonaviy texnologiyalar - bularning barchasi ularning dunyoqarashi, fikrlash tarzi va qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday sharoitda ularga hayotda to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi, ularni ezgulik, halollik, adolat, qonuniylik sari yetaklovchi ma'naviy va huquqiy asoslarni singdirish - o'ta muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Axloqiy madaniyat va huquqiy me'yorlar bir-birini to'ldirgan holda, yoshlarning hayotda to'g'ri munosabatlar o'rnatishi, o'z o'rnini topishi va chinakam inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya - bu odob-axloq doirasida yashash, huquqiy tarbiya esa - qonunlar doirasida yashashni anglatadi. Ikkalasi uyg'unlashgandagina barkamol shaxs yuzaga keladi¹. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik jarayonda huquqiy-ma'naviy qadriyatlar asosida axloq-odob tamoyillarini shakllantirish oddiy ta'lim berish emas, balki butun bir avlod tafakkurini, yurak-yu ongini yoritish, uni kelajak sari yetaklashdir. Bu borada o'qituvchi, murabbiy, ota-ona, jamiyatning har bir a'zosi birdek mas'uldir. Zotan, har bir yigit-qizning qalbiga ezgulik urug'ini qadash, uni qonun va ma'naviyat ruhida tarbiyalash orqali biz sog'lom jamiyat, mustahkam davlat va porloq kelajakni barpo etamiz. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasida huquqiy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish bu nafaqat bugunning, balki ertangi kunning ham ishonchli poydevoridir.

Muhokama.

Axloq-odob tamoyillari va huquqiy qoidalar - jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotining negizidir. Ularning uyg'unligi shaxsning ijtimoiy, axloqiy va huquqiy ongini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlar tarbiyasida huquqiy-me'yorlar va ma'naviy qadriyatlarning integratsiyasi tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Huquqiy qadriyatlar shaxs va jamiyat o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni, huquq asosida tashkil etilgan me'yorlarni ifodalaydi. Ma'naviy qadriyatlar esa, axloqiy prinsiplar, insoniy fazilatlar va jamiyat madaniyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy hayotdagi axloq-odob tamoyillari - bu qadriyatlarning kundalik hayotda amalda namoyon bo'ladigan shaklidir².

Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - bu yosh avlodni nafaqat bilimli, balki yuksak axloq-odobli, huquqiy ong va ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan inson sifatida voyaga yetkazishdir. Zero, ma'naviyat va huquqiy tarbiya uyg'un holda shakllanmas ekan, jamiyatda adolat, tinchlik va taraqqiyot kabi yuksak qadriyatlar barpo etilishi mushkul bo'ladi. Pedagogik jarayon bu borada beqiyos imkoniyatlarga ega. Avvalo, yoshlarga ma'naviy va huquqiy bilimlarni tizimli tarzda berish - ularning dunyoqarashini shakllantiradi, ongini yoritadi. Maktab va oliygoh darslarida qonunlar, inson huquqlari va jamiyat me'yorlari haqida tushunchalar berilishi - ularni hayotga tayyorlaydi, fikr yuritishga o'rgatadi. Bundan tashqari,

amaliy vazifalar va ijtimoiy loyihalarga jalb etish orqali yoshlar faollikka undaladi. Bu ularga nafaqat bilim, balki tajriba ham beradi. Axir, amaliy faoliyat orqali inson o'zining jamiyatdagi o'rnini chuqur anglaydi, mas'uliyatni his qiladi. Yoshlar hayotda duch keladigan murakkab vaziyatlarga tayyor bo'lishi, fikr va e'tiqod erkinligini hurmat qilishni o'rganishi zarur.

Jamiyatdagi axloqiy va huquqiy normalarni yoshlar ongiga singdirish esa tarbiyaning markaziy yo'nalishidir. Oila, maktab, mahalla - bu uch asosiy muhit yosh avlodga mehr-oqibat, halollik, adolat, qonun ustuvorligi kabi qadriyatlarni tushuntirib, ularni hayotga tadbqiq etishda o'zaro hamkorlikda ishlashi lozim. Eng asosiysi, yoshlar qalbida mas'uliyat hissini uyg'otish, ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undashimiz kerak. Zero, o'z jamiyatining ertangi kuni uchun javobgar ekanini his etgan inson - haqiqiy fuqarodir. Shunday ekan, pedagogik jarayonni huquqiy-ma'naviy qadriyatlar asosida olib borish - nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatimizning kelajagiga sarmoya kiritish demakdir. Bu esa bizdan fidoyilik, ilmiy yondashuv va yuksak ma'naviy mas'uliyatni talab qiladi. Pedagogik jarayonda yondashuvlar sifatida interfaol metodlar, masalan, rolli o'yinlar, debatlar, treninglar va diskussiyalar keng qo'llaniladi. Shu tarzda yoshlarning xulq-atvori va qarashlarida huquqiy-ma'naviy tamoyillar mustahkamlanadi.

Huquqiy qadriyatlar yoshlarni qonunlarga hurmat ko'rsatishga, ijtimoiy majburiyatlarini anglashga o'rgatsa, ma'naviy qadriyatlar insoniylik, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Ularning uyg'unligi shaxs tarbiyasida uzviy bog'lanishni ta'minlaydi. Axloq-odob tamoyillari yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri yo'l tutishiga, boshqalar huquqlarini hurmat qilishga o'rgatadi³. Bu tamoyillar maktabda, oilada va kengroq ijtimoiy muhitda doimiy ravishda mustahkamlanib boradi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan vazifalar va mashg'ulotlar huquqiy-me'yoriy bilimlarni chuqurlashtirishdan tashqari, amaliy axloqiy vaziyatlarda to'g'ri yakun chiqarishni ta'minlaydi. Masalan, huquqiy o'yinlar, muammolarni muhokama qilish, axloqiy huquqiy dilemmalarda qaror qabul qilish. Jamiyat va oila sharoitida namuna olish, axloqiy va huquqiy qadriyatlarni amaliyotda ko'rish yoshlarning ongida muhim o'rin tutadi. Pedagoglar va ota-onalar o'zaro hamkorlikda yoshlarning to'g'ri xulq-atvorini shakllantirishda faol rol o'ynaydi. Huquqiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda, xususan, raqamli vositalar, multimedia resurslari va interaktiv metodologiyalarni qo'llash yoshlarning qiziqishini oshiradi va ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

¹ Abdugodirov, Sh. "Ma'naviy va huquqiy tarbiya asoslari", Toshkent, 2020.

² Karimov, O. "Yoshlar ongida axloq-odobni shakllantirish pedagogikasi", Samarqand, 2021.

³ Rasulov, D. "Huquqiy qadriyatlar va ijtimoiy tarbiya", Toshkent, 2019.

Bugun biz qanday yoshlarni tarbiyalayapmiz? Ertaga ularning qo'liga jamiyatni ishonib topshiramiz. Demak, yoshlar ongiga singdirilayotgan har bir qadriyat, har bir fikr - bu kelajagimizga qo'yilgan tamal toshi. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, huquqiy-ma'naviy qadriyatlar asosida axloq-odob tamoyillarini shakllantirish masalasi nafaqat dolzarb, balki hayotiy zaruratga aylangan. Tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu yo'nalishda olib borilayotgan pedagogik ishlar samarasi bevosita ta'lim sifati va tarbiya mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Huquqiy va ma'naviy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlar ichki intizom, tashqi madaniyat va qonuniylik tamoyillarini chuqur anglamoqda. Axloqiy tarbiya orqali esa ular mehr-oqibatli, halol va adolatli inson bo'lib yetishmoqda. Bugun darslarda nafaqat formulalar, balki hayotiy saboqlar berilmoqda. Muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, ijtimoiy loyihalar orqali yoshlar hayotga tayyorlanmoqda. Ular o'rganayotgani - qonunni bilish emas, balki unga amal qilish, unga hurmat bilan qarash. Ular anglamoqda: axloq – bu jamiyatda yashash madaniyati, huquq – bu o'sha jamiyatda tartib va adolatni ta'minlovchi asos.

Bu boradagi yondoshuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki shaxs tarbiyalovchi, jamiyatga sog'lom fikrli avlod yetkazuvchi insondir⁴. U yosh qalbga axloq va huquq urug'ini qadaydi. O'z navbatida, bunday yondashuv natijasida jamiyatimizda huquqqa itoatkor, ma'naviy yetuk, mas'uliyatli yoshlar kamol topmoqda. Shunday ekan, huquqiy-ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda axloq-odob tamoyillarini shakllantirish - bu nafaqat ta'limning, balki butun jamiyatning kelajagiga qaratilgan ulug' maqsaddir. Bu yo'l bardavom bo'lsin, negaki, u ezgulikka, taraqqiyotga, adolatli jamiyat sari boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abduqodirov, Sh. "Ma'naviy va huquqiy tarbiya asoslari", Toshkent, 2020.
2. Karimov, O. "Yoshlar ongida axloq-odobni shakllantirish pedagogikasi", Samarqand, 2021.
3. Rasulov, D. "Huquqiy qadriyatlar va ijtimoiy tarbiya", Toshkent, 2019.
4. Xolikov, B. "Pedagogik tarbiya va axloq" Toshkent, 2018.
5. Islomova, G. "Yoshlar ma'naviyati va huquqiy madaniyati", Buxoro, 2022.

Xulosa.

Yosh avlod tarbiyasi – bu xalq kelajagining poydevoridir. Ayniqsa, bugungi shiddatkor zamonda yoshlarning axloqiy barkamolligi va huquqiy ongini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, huquqiy-ma'naviy qadriyatlarga tayanib, yoshlar ongida axloq-odob tamoyillarini shakllantirish – pedagogik jarayonning eng muhim va ajralmas bo'g'inidir. Bu oddiy jarayon emas. Bu – yosh qalbiga nur sochish, uni adolat va halollik yo'lida tarbiyalash, uni hayot sinovlariga tayyorlashdir. Axloq-odob me'yorlarini anglagan, qonunlarga hurmat bilan qaraydigan, o'z jamiyatida mas'uliyatli o'rin egallashga intiladigan yosh – bu Vatan uchun eng katta boylik, bebaho xazina demakdir. Zamonaviy pedagogik yondoshuvlar aynan shunday maqsad sari yo'naltirilishi kerak: ular huquqiy bilim bilan ma'naviy tarbiyani uyg'unlashtirib, yoshlarda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Darslar, amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy loyihalar, bahs-munozaralar orqali yoshlar jamiyatdagi o'rnini anglaydi, o'z fikrini erkin ifoda etadi, tanqidiy fikrlaydi va eng muhimi – adolatli yashashga intiladi. Huquq va axloq – bu ikki qanotdir. Biri qonunlar asosida yashashni, ikkinchisi esa insoniylik, mehr-oqibat va halollikni targ'ib qiladi⁵. Pedagogik jarayon esa bu ikki qanotni birlashtirib, yoshlar ongiga singdiradi. Natijada, jamiyatga ongli, mas'uliyatli, vijdonli va iymonli avlod kirib keladi. Shunday ekan, har bir ustoz, har bir ota-ona, har bir jamiyat a'zosi yoshlarda huquqiy-ma'naviy qadriyatlar asosida axloq-odob tamoyillarini shakllantirishni o'zining muqaddas burchi deb bilmogi darkor. Chunki biz qanday yoshlarni tarbiyalasak, ertaga shunday jamiyatda yashaymiz.

⁴ Xolikov, B. "Pedagogik tarbiya va axloq" Toshkent, 2018.

⁵ Islomova, G. "Yoshlar ma'naviyati va huquqiy madaniyati", Buxoro, 2022.